
SAVDO DO'KONLARI VA DORIXONALARDAGI NARX-NAVO HOKIM
NAZORATIDA

Yurtimizda "Covid-19" koronavirusi infeksiyasi keng tarqalishini oldini olish, shuningdek, tuman Dehqon bozori, savdo do'konlari va dorixonalarda oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalari tanqisligi hamda narx-navoni sun'iy oshirishni oldini olish yuzasidan tuman hokimi va sektor rahbarlari nazorat o'rnatishgan.

Xususan, Dehqon bozori va savdo do'konlariga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi, savdo qoidalariga rioya etilishi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan doimiy o'rganishlar olib borilmoqda.





Tuman hokimi I. Novikov Nurafshon, Yo'ldoshobod va Oqtepa mahalla fuqarolar yig'inlarida bo'lib, mas'ul idora rahbarlari bilan birgalikda oziq-ovqat do'konlari hamda dorixonalardagi narx-navo bilan tanishib, sotuvchilar bilan yaqindan suhbat o'tkazdi.



Karantin davrida tumandagi oziq-ovqat do'konlarida odamlarning birlamchi ehtiyoji uchun zarur bo'ladigan mahsulotlari hamda dori vositalari va tibbiy niqoblar bilan yetarli darajada ta'minlanganligi va narx-navolar bilan tanishdi.





2020-04-13 12:45:44